QOBILIYAT SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATI SIFATIDA

Tòliboyeva Shahnoza
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti pedagogika psixologiya ta'lim yònalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada qobiliyat va uning turlari haqida, iste'dod, talant va geniylik haqida sòz yuritiladi. Qobiliyatni rivojlantirishning ahamiyati, qobiliyat bòyicha B.M.Teplov va I.P.Pavlov nazariyasi borasida maqolada yoritib òtiladi.*

Kalit sòzlar: *Qobiliyat, Iste'dod, Talant, Geniylik, Tabiiy qobiliyatlar, Maxsus qobiliyatlar, Umumiy qobiliyatlar*

Tuǵma iste'dod nishonlari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.
S.L.Rubinshteyn.

Qobiliyat insonning biror-bir soha bòyicha tajribaliroq ekanligidir. Unda shu sohaga nisbatan moyillik mavjud bòladi va ushbu faoliyatni u chin dildan qiziqib bajaradi.Qobiliyatlar insonning individual xususiyatiga qarab rivojlantirilishi yoki sònishi ham mumkin.Qobiliyatni rivojlantirish uchun inson shu faoliyat bilan shuǵullanib turishi kerak. Masalan, shoir inson she'r yozib turmasa qobiliyati sònishi mumkin. Shu o'rinda S.L.Rubinshteyn ham aytib òtganki, " Tuǵma iste'dod nishonlari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim" . Maktab bitiruvchilarining nimaga qobiliyatli ekanligini aniqlash juda muhimdir. Chunki shunga qarab ular kasbga yònaltiriladi. Aniqlangan qobiliyat, qiziqish bòyicha yònaltirilsa, ular ushbu kasb faoliyatini egallashi oson bòladi. Chunki ularda ushbu faoliyatga qiziqish va moyillik mavjud.

Qobiliyatlar - shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyatlar. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xii turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi. Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir - har qaysi odam ma'ium darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi, lekin, shu bilan bir qatorda, ko'pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi. Biror sohada qobiliyati sezilarliroq bo'lib ko'rinadigan ayrim kishilarni qobiliyatli kishi (umuman) qobiliyatli matematik, qobiliyatli musiqachi, konstruktor, rassom va hokazo deydilar. Faoliyatning biror turi sohasida qobiliyatning paydo bo'lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi.Ayrim kishilarning qobiliyati birgina sohada emas, balki bir necha sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday kishilar har tomonlama qobiliyatli

kishilardir. Odamning qobiliyatlarida tug'ma xususiyatlar ham namoyon bo'ladi. Shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyatlari iste'dod deyiladi. Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o'z ishini qanchalik muvafaqqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz. Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalanning sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li, bilan uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko‘nikma va malakalami hosil qilishni ta’minlasin.To'rtinchidan, o‘quvchining maxsus qobilyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo‘li bilan Beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki, bu alomatlari dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qat’iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potensial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan, maktab o‘quvchilanga nisbatan individual monosabatda bo‘lishni umumiy talablar bilan to' g‘ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo' lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Bolada juda erta seziladigan psixologik xususiyatlar zehn yoki dastlabki tabiiy xususiyatlardir. Shuni aytib o‘tish lozimki, B.M.Teplov haqli ravishda avtgandek, psixologik xususiyat har taraflama ahamiyatga ega bo‘lib, ular xarakterning ham, qobiliyatning ham tabiiy asosini tashkil qiladi. Umumiy tipdagi xususiyatlar kuchda va tonusda ifodalanadigan faollik, vazminlik, in’ikos va harakat jarayonlarining sezgirlik darajasi, shubhasiz qobiliyaming tashkil topishiga ta’sir qiladi. B.M.Teplov qobiliyatlarning uchta belgisini aniqladi, ular mutaxassislar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan ta'rifning asosini tashkil etdi: 1) qobiliyatlar - bu bir shaxsni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar; 2) faqat faoliyat yoki bir nechta faoliyatning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar; 3) qobiliyatlar -insonda allaqachon shakllangan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar cheksizdir, garchi ular ularni egallashning osonligi va tezligini belgilaydi.

Shunday qilib, qobiliyatlar psixologiyasi sohasi individual farqlar psixologiyasining (differensial psixologiya) bo'limidir. Badiiy tipning xarakterli belgisi shundaki, ular birinchidan, voqelikni yaxlit, to'la va jonli tarzda idrok etadilar, holbuki mutafakkirlar uni bo'lib-bo‘lib qabul qiladilar va shuning bilan go‘yo uni jonsizlantiradilar. Ikkinchidan, badiiy tip vakillarida tasavvur abstrakt fikrlashdan ustun bo'ladi. Fantaziya - deydi I.P.Pavlov - bu badiiy qobiliyat bo‘lib birinchi signal tizimiga tegishlidir. Fikrlovchi tipda esa aql nazariy bo'lib, u so‘z bilan bog‘liqdir. Uchinchidan, badiiy tip yuksak emotsionallik bilan ajralib turadi, chunki birinchi signal tizimi LP.Pavlov tili bilan aytganda asosiy emotsional fondni

tashkil qiluvchi miya qobig'i bilan yaqin bog‘liqdir. Badiiy tip havajonli, muqarrar, emotsional tipdir, degan edi LP.Pavlov va aksincha, mutafakkir tipda emotsional fon va birinchi signal tizimi zaif bo'lsada, lekin u sog‘lom va soddadil odam bo'ladi.

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi: 1. Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2. Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta’minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o‘z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3. Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Talantli deb shunday odamlarni aytiladiki, ular ma'lum sohada murakkab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli narsalar yaratishga qodir bo'ladilar. Talantli deb, shuningdek, bilimlarni tez, muvaffaqiyat bilan o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda, o'z faoliyatlarida to'g'ri tatbiq qiladigan odamlarni ham aytiladi.

Genial yoki geniy deb, biz shunday kishilarni aytamizki, ular nihoyatda katta masalalarni hal qiladilar, butun bir sinf yoki xalqlar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, misli ko'rilmagan qilmmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda go'yo burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, tarixni oldinga progressiv tomon harakatga keltiruvchi madad bo'lib xizmat qiladi. Masalan, biz Alisher Navoiyning genial shoir deb hisoblaymiz, chunki, u shunday asarlar yaratdiki, uning asarlari bunyodga kelishi bilan o'zbek adabiyotida o'zbek tili taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi.

Shuni xulosa qilish kerakki, inson zoti borki, albatta barchasida qobiliyatlar bisyor, faqat ushbu qobiliyatlardan ayrimlari ustunlik qiladi xolos. Qobiliyatlar faqat tuǵma holda berilmaydi, ularni biror narsaga qiziqish asosida ham rivojlantirish mumkin. Bu o'rinda qiziqishlar katta ahamiyatga ega. Qobiliyatli kishilar òz sohasidagi faoliyatini samarali bajarishadi. Albatta, har bir qobiliyatning murakkab tomoni bòladi va u òsha qobiliyatli kishiga ham yuksak talablar qòyadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova - "Umumiy psixologiya"-T-2009;
2.P.I.Ivanov, M.E.Zufarova-"Umumiy psixologiya"-T-2008;
3.V.N.Drujinin-"Umumiy qobiliyat psixologiyasi"-1996.